
15 may - "Xalqaro oila kuni"

Toshloq tumani Oila va xotin-qizlar bo'limi tashabbusi bilan 15 may -"Xalqaro oila kuni" munosabati bilan "Vatan oiladan boshlanadi" shiori ostida ma'naviy-ma'rifiy tadbir o'tkazildi.

Tumandagi "Nayman" madaniyat uyida bo'lib o'tgan tadbirda tuman hokimi Abduqahhor Djurabayev, tuman bosh-imom xatib Sh.Egamberdiyev, tuman adliya bo'limi boshlig'i Ya.Zulpixorov, oila va xotin-qizlar bo'limi boshlig'i

U.Marasulovalar hamda tuman oqila ayollar harakati a'zolari qatnashdilar.

Tadbirda so'zga chiqqanlar mamlakatimizda umuminsoniy, milliy va oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash, ibratli oilalarni ijtimoiy faolligini yanada oshirish, ota-onalarning farzand tarbiyasidagi mas'uliyatini mustahkamlash,

yoshlarni oilaviy nikohga tayyorlash borasida gapirib o'tdilar.

Tadbir so'ngida 5 ta ajrim yoqasida turgan oilalar bildirilgan fikr mulohazalardan o'ziga to'g'ri xulosa qilganligini va ajrim qarorini bekor qilib farzandlari kelajagi uchun birga yashashga ahd qilganliklarni bildirdilar.

2023-05-13 15:53:23